



OTA-ONALARNING TA'LIM TIZIMIGA BO'LGAN MUNOSABATLARI VA TEXNIKUM BILAN UZVIY HAMKORLIGI

Boyxanova Nilufar Ravshanbekovna

Kosonsoy tuman 2-son texnikumi

Yoshlar bilan ishlash bo'yicha direktor o'rinbosari

Annotatsiya: Ushbu maqolada ota-onalarning ta'lim jarayoniga bo'lgan qarashlari hamda texnikum faoliyati bilan olib borilayotgan hamkorlik masalalari tahlil etiladi. Oila va ta'lim muassasasi o'rtasidagi yaqin aloqaning o'quvchilarning bilim olish jarayoni, kasbiy tayyorgarligi va shaxs sifatida shakllanishidagi o'rni ochib berilgan. Shuningdek, farzand tarbiyasida ota-onalarning mas'uliyati, pedagoglar bilan hamkorlikni mustahkamlash va ta'lim samaradorligini oshirishning dolzarb jihatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: ota-ona mas'uliyati, ta'lim jarayoni, texnikum faoliyati, hamkorlik tizimi.

Kirish

Insoniyat taraqqiyoti tarixiga nazar tashlasak, shaxsning ilk tarbiyasi va kamoloti avvalo oilada shakllanishi ayon bo'ladi. Oila jamiyatning eng muhim bo'g'ini sifatida farzandni sog'lom, bilimli va ma'naviy yetuk etib voyaga yetkazishda katta mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi. Shu bilan bir qatorda, ta'lim muassasasining ham o'rni beqiyosdir. Oila va maktabning o'zaro hamkorligi bolalarning nafaqat ta'lim olishida, balki ularning to'g'ri tarbiya topishi va kelajakda komil inson bo'lib shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda zamonaviy texnologiyalar inson hayotini ancha qulaylashtirmoqda. Ammo ortiqcha qulaylik ayrim yoshlar orasida mas'uliyatsizlik, dangasalik hamda hayotga yengil qarash kabi holatlarni yuzaga keltirmoqda. Natijada yoshlarni to'g'ri yo'lga yo'naltirish, ularga yaxshi bilan yomonning farqini tushuntirish tobora murakkablashib bormoqda. Bunday muammolarni bartaraf etishda maktab va oilaning hamjihatligi muhim vosita hisoblanadi. Ta'lim muassasasi bilan ota-onalar o'rtasidagi samarali hamkorlik o'quvchilarning kelajagini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Afsuski, ayrim hollarda bu hamkorlik yetarli darajada yo'lga qo'yilmayapti. Bunga sabab sifatida ba'zi pedagoglarning kasbiy mahorati yoki o'quvchilar bilan individual ishlash ko'nikmasi yetarli emasligini ko'rsatish mumkin. Natijada jamiyatda maktab va o'qituvchilarga nisbatan salbiy fikrlar shakllanmoqda. Ba'zi o'qituvchilar o'quvchi bilan yaqin muloqot o'rnatish, uning ichki dunyosini tushunishga harakat qilish o'rniga, faqat kamchiliklariga e'tibor qaratadilar. O'quvchi haqidagi salbiy fikrlarni ota-onaga yetkazishda esa



uning ijobiy tomonlari ko'pincha e'tibordan chetda qoladi. Holbuki, har bir o'quvchi avvalo bir oilaning farzandi hisoblanadi. Farzandi haqida faqat tanqid eshitgan ota-onada o'qituvchiga nisbatan ishonchsizlik paydo bo'lishi tabiiy. Natijada maktab va oila o'rtasidagi hamkorlik susayadi, bu esa bolaning ta'lim va tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Pedagog ota-onaga farzandining yaxshi jihatlarini ham ta'kidlab borishi zarur. Bu ota-onada quvonch va ishonch uyg'otadi, ularning farzand tarbiyasiga bo'lgan e'tiborini yanada kuchaytiradi. O'quvchi haqida fikr bildirilayotganda o'qituvchi aniq dalillarga asoslanishi, ayniqsa kamchiliklar haqida gap ketganda, muammoning yechimi bo'yicha ham tavsiyalar berishi muhimdir. Samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish uchun ota-onalar va pedagoglar o'zaro hurmat, ishonch va hamjihatlik asosida faoliyat olib borishlari kerak. O'quvchini rag'batlantirish, uning qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan konstruktiv tavsiyalar berish hamda kelajagi uchun birgalikda reja tuzish muhim hisoblanadi. Agar oila va maktab yagona jamoa sifatida harakat qilsa, o'quvchining bilimli, tarbiyali va kelajakda muvaffaqiyatli inson bo'lib voyaga yetishi uchun mustahkam zamin yaratiladi.

Metod

Ushbu tadqiqotni amalga oshirish jarayonida bir qator ilmiy-pedagogik usullardan foydalanildi. Jumladan, mavzuga oid ilmiy manbalarni o'rganish, kuzatish, tahliliy yondashuv, savol-javob va taqqoslash metodlari asosiy tadqiqot vositasi sifatida qo'llanildi. Tadqiqot davomida ota-onalarning texnikum faoliyatidagi ishtiroki, ularning ta'lim jarayoniga bo'lgan munosabati hamda pedagoglar bilan hamkorlik darajasi o'rganildi. Maqolani tayyorlashda oila va ta'lim muassasasi o'rtasidagi munosabatlarga doir pedagogik hamda psixologik adabiyotlar tahlil qilindi. Shuningdek, texnikum pedagoglari, ota-onalar va o'quvchilar bilan olib borilgan suhbatlar orqali mavjud muammolar hamda ularning amaliy yechimlari aniqlashtirildi. Kuzatuv jarayonida ota-onalarning farzand tarbiyasidagi ishtiroki, o'quvchilarning ta'limga qiziqishi va pedagogik muhitga moslashuvi alohida e'tiborga olindi. Tadqiqot natijalarini yanada ishonchli qilish maqsadida olingan ma'lumotlar o'zaro qiyoslandi va umumlashtirildi. Shuningdek, samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish bo'yicha ilg'or tajribalar o'rganilib, ularni ta'lim amaliyotiga tatbiq etish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqildi.

Natija

Mening 4 va 5-sinfda tahsil olayotgan ikki nafar farzandim bor. Ularning fanlarni o'zlashtirish darajasi bir-biridan sezilarli farq qiladi. Katta farzandim matematik masalalarni tez tushunadi, she'rlarni oson yodlaydi va umumiy o'zlashtirish ko'rsatkichi kichik farzandimnikiga nisbatan ancha yuqori. Masalan, matematik mavzuni katta farzandim qisqa izoh orqali tushunib olsa, kichik farzandimga ayni mavzuni bir necha bor misollar yordamida



tushuntirishga to'g'ri keladi. Shunga qaramay, kichik farzandimning maktabga, darslarga va ayniqsa sinf rahbariga bo'lgan qiziqishi hamda mehr-muhabbati juda kuchli. Sinf rahbarlari bilan olib borilgan suhbatlar va maktabdagi muhitni kuzatish natijasida shunday xulosaga keldimki, o'quvchining ta'limga bo'lgan munosabati ko'p jihatdan pedagogning yondashuviga bog'liq ekan. Ayrim o'qituvchilar boladagi qiziqish va iste'dodni qo'llab-quvvatlash o'rniga, noto'g'ri munosabat yoki befarqlik sababli uning ichki salohiyatini pasaytirib yuborishi mumkin. Natijada bola asta-sekin darslarga bo'lgan qiziqishini yo'qota boshlaydi. Pedagogik kuzatuvlar va amaliy tajribalar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich hamda o'rta sinflardagi ta'lim sifati o'quvchining keyingi bosqichdagi muvaffaqiyatiga katta ta'sir qiladi. Ayniqsa, 7-sinfga qadar mustahkam bilim va ijobiy motivatsiya shakllanmagan bo'lsa, o'quvchining yuqori sinflar, akademik litsey, texnikum yoki oliy ta'limdagi muvaffaqiyat ehtimoli sezilarli darajada kamayadi. Shu sababli o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki o'quvchining ichki imkoniyatlarini yuzaga chiqaruvchi va unga ruhiy tayanch bo'luvchi shaxs sifatida faoliyat yuritishi muhimdir.

Mulohaza

Ta'lim tizimining samarali ishlashi ko'p jihatdan ota-onalarning maktab va texnikum faoliyatiga bo'lgan munosabati hamda ularning hamkorlik darajasiga bog'liqdir. Bugungi kunda texnikumlarda tahsil olayotgan yoshlarni kasbga yo'naltirish, ularda amaliy ko'nikmalarni shakllantirish va mustaqil hayotga tayyorlashda oilaning qo'llab-quvvatlashi alohida ahamiyat kasb etadi. Kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, ota-onasi ta'lim jarayoniga faol aralashadigan o'quvchilar darslarga nisbatan mas'uliyatli bo'ladi, yangi bilimlarni tez o'zlashtiradi va o'z maqsadlarini aniqroq belgilaydi. Aksincha, oilaviy nazorat va qiziqish sust bo'lgan holatlarda o'quvchining motivatsiyasi pasayib, o'qishga bo'lgan munosabati ham zaiflashishi mumkin. Bu esa uning kelajakdagi kasbiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Texnikum va ota-onalar o'rtasidagi muntazam aloqa o'quvchi tarbiyasini to'g'ri yo'lga qo'yishda muhim vosita hisoblanadi. Pedagoglar tomonidan ota-onalarga o'quvchining nafaqat kamchiliklari, balki erishayotgan yutuqlari haqida ham ma'lumot berilishi ishonchni mustahkamlaydi. Bunday yondashuv o'quvchini ruhlantiradi va uning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi. Muammoli vaziyatlarda esa bir-birini ayblash emas, balki hamkorlikda yechim topish eng to'g'ri yo'ldir.

Hozirgi axborotlashgan jamiyatda yoshlar turli ta'sirlar ostida bo'lib, ularning qiziqishlari tez o'zgarib boradi. Shu sababli ota-onalar va pedagoglar o'quvchilarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularni kasb-hunarga yo'naltirish hamda ma'naviy qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratishlari zarur. Agar ota-ona va pedagog bir maqsad sari birlashsa, o'quvchi bilimli,



intizomli va jamiyatda o'z o'rnini topa oladigan shaxs bo'lib shakllanadi. Shu bois ta'lim jarayonida "oila – texnikum – o'quvchi" hamkorlik tizimini mustahkamlash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, ota-ona va ta'lim muassasasi o'rtasidagi hamkorlik tashqi tomondan oddiy va kichik jarayondek ko'rinsa-da, aslida u farzand tarbiyasi va uning kelajakdagi hayot yo'lini belgilab beradigan eng muhim omillardan biridir. Bu hamkorlik o'quvchining bilim olish jarayonini qo'llab-quvvatlaydi, uning qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirishga xizmat qiladi hamda har bir yoshning o'z iqtidoriga mos yo'nalishni tanlashida muhim rol o'ynaydi. Ta'lim jarayonini ishlab chiqarish tizimi bilan qiyoslaganda, har bir bosqichning aniqligi va sifati juda muhim ekanini ko'rish mumkin. Ishlab chiqarishda mahsulot sifati mikron darajasigacha nazorat qilinib, belgilangan me'yorlardan og'ish bo'lsa, u nuqsonli mahsulot sifatida qayta ishlanadi yoki tuzatiladi. Xuddi shunday, ta'lim jarayonida ham har bir "element" — ya'ni o'quvchi bilan ishlash, ota-ona nazorati, pedagogik yondashuv va tarbiyaviy muhit — o'z vaqtida va to'g'ri yo'lga qo'yilmasa, kutilgan natija pasayishi mumkin. Sifatli ta'lim natijasi esa jamiyat kelajagini belgilaydi. Chunki yaxshi tayyorlangan, bilimli va ma'naviy yetuk yoshlar keyinchalik jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shadi. Shuning uchun ham ota-ona va o'qituvchi har bir bosqichga mas'uliyat bilan yondashib, o'quvchini tarbiyalash jarayonini birgalikda, uzviy hamkorlikda olib borishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOT VA HAVOLALAR

1. Rakhimov M., Yuldashev A., Solidjonov D. (2021). The role of artificial intelligence in the management of e-learning platforms and monitoring knowledge of students. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(9) "Cooperation between school and parents. Supporting the educational process" Education in areas characterized by a lack of access to infrastructure and highly qualified jobs in the context of the Europe 2020 strategy https://t.me/openidea_uz Social Sciences & Humanities
2. Dildora R., Muxlisa P. (2022). MAKTABDA ZAMONAVIY TA'LIM MUHITINI YARATISH.